

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi



2018 yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **14,5 trln.so'mni**, o'sish **12,9 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **-107,1 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **30,5 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **28,7 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'iycha 2018 yilning yanvar oyida respublika korxonalarini tomonidan 14,5 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 9,3 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 7,1 punkt), tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 33,4 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 4,9 punkt), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 9,0 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,7 punkt) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning - 23,8 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,2 punkt) o'sishi hisoblanadi.

2018 yil yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi






Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,5 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 17,1 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'iyicha chaqiq tosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 2,7 martaga, kaolin - 2,2 martaga, shag'al – 83,5 % ga, gaz kondensati – 27,4 % ga, ko'mir - 21,5 % ga va tabiiy gaz – 7,1 % ga oshganligini, shu bilan birga neft qazib olish hajmining 8,2% ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Yanvar oyida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,6 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 73,2 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilganlarsiz) ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 60,6 % ga, avtomobil dvigatellari - 58,2 % ga, piva - 15,8 % ga, avtomobil benzini - 15,4 % ga, tamaki mahsulotlari - 13,9 % ga, paxta tolasi – 0,8 % ga oshganligini va yuk avtomobillari, dizel yoqilg'isi, portlandsement, aroq, o'simlik yog'i va avtobuslar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

Yanvar oyida Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	2017 yil	2018 yil	2017 yil yanvarga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	17,9	17,3	96,3
Paxta tolasi, ming tonna	127,5	128,6	100,8
Aroq – mig litr 100 % spirt	4417,5	4117,5	93,2
Piva, ming litr	5628,4	6516,9	115,8
Tamaki mahsulotlari, mln.dona	783,0	892,0	113,9
Avtomobil benzini, ming tonna	91,0	105,0	115,4
Dizel yoqilg'isi, ming tonna	91,5	71,5	78,1
Portlandsement, ming tonna	619,7	566,5	91,4
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilganlarsiz), dona	7581	12174	160,6
Yuk avtomobillari, dona	277	177	63,9
Avtobuslar, dona	40	39	97,5
Avtomobil dvigatellari, dona	5831	9223	158,2



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,3 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,8 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani taqsimlash bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 martaga, sovutilgan havo va sovutilgan suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning – 26,3 % ga, elektr energiyaning – 6,4 % ga, gazzimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlarning - 6,3 % ga oshganligi va issiqlik energiyasining 4,0 % ga kamayishi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 122,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ni) tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni 54,5 % ga, tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni - 38,5 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 20,3 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlarning – 11,8 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 4,4 trln.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar oyiga nisbatan 7,1 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 30,5 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 55,7 % dan 2018 yilning yanvar oyida 61,3 % ga oshishi kuzatilmoqda.


Yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent viloyati (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,5 % ulushini), Toshkent shahar (14,7 %), Navoiy (12,1 %), Andijon (9,8 %), Qashqadaryo (7,5 %), Farg'ona (6,5 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar oyida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Shu bilan birga eng kam ulush Jizzax (1,4 %), Surxondaryo (1,6 %), Sirdaryo (2,2 %), Namangan (2,3 %) va Xorazm (2,8 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Surxondaryo (2017 yilning yanvar oyiga nisbatan 141,3 % ga), Andijon (140,2 % ga), Xorazm (128,4 % ga), Toshkent (113,0 % ga), Qashqadaryo (111,5 % ga) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (109,9 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.


2018 yilning yanvar oyida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Navoiy viloyatida (1844,1 ming so'm), Toshkent shahrida (866,1 ming so'm), Toshkent (838,0 ming so'm) va Andijon (475,0 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (446,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yilning yanvar oyida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda



Hududlar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (2017 yilning yanvar oyiga nisbatan 138,4 % ga), Andijon (137,9 % ga), Xorazm (126,3 % ga) va Toshkent (111,7 % ga) viloyatlarida kuzatildi.

2018 yilning yanvar oyida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 28,7 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 71,9 %), Namangan (59,4 %), Samarqand (52,9 %) va Jizzax (48,8 %) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy viloyatida (10,9 %), Qoraqalpog'iston Respublikasida (11,5 %), Toshkent (16,3 %) va Qashqadaryo (16,8 %) viloyatlarida kuzatildi.

2018 yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da




Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda respublikada 50 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 12298 tasi Toshkent shahrida, 5494 tasi Farg'ona, 5256 tasi Toshkent, 4879 tasi Andijon, 3939 tasi Namangan,

3784 tasi Samarqand, 2342 tasi Buxoro, 2179 tasi Xorazm, 2112 tasi Qashqadaryo, 1875 tasi Jizzax, 1714 tasi Surxondaryo, 1549 tasi Navoiy, 1135 tasi Sirdaryo viloyatlarida va 1475 tasi Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan.

2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar oyi davomida respublikada 1,1 mingta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 70 % Toshkent shahri, Farg'ona, Toshkent, Andijon, Namangan va Samarqand viloyatlariga to'g'ri keladi.

**Davlat statistika qo'mitasining
Sanoat statistikasi boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:

J.Sharipov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-80-46